



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 21-yanvar, chorshanba,  
5 (24.185)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Yoz bo'yi  
yotar —  
qish bo'yi  
qotar

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz



info@zarnews.uz



# Dual ta'lim imkoniyatlari

## tadbirkorlar bilan muhokama qilindi

Viloyat hokimi huzuridagi tadbirkorlar jamoatchilik maslahat kengashining navbatdagi majlisi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida o'tkazildi.

Unda viloyat hokimi Adiz Boboyev, kengash a'zolari, mahalliy tadbirkorlar, oliy ta'lim muassasalari, boshqarma va idoralar rahbarlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda viloyatimizdagi ta'lim muassasalari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar borasidagi hamkorlikni dual ta'lim tamoyillari asosida kengaytirish, ta'lim va ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti birinchi prorektori Sherzod Uzoqovning qayd etishicha, bugungi kunda universitetda 9 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda va ularga 400 nafarga yaqin professor-o'qituvchi ta'lim bermoqda. Oliy ta'lim muassasasi tarkibida 4 ta fakultet faoliyat yuritib, ta'lim jarayoni 39 ta bakalavriat, 13 ta magistratura hamda 16 ta doktorantura yo'nalishlari asosida tashkil etilgan.

— Ayni paytda universitetimiz yuzga yaqin xorijiy

oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, — deydi Sherzod Uzoqov. — Joriy yilda Xitoy Xalq Respublikasining "Hengda" tashkiloti bilan 4 million dollarlik shartnoma imzolandi, universitet huzurida qurilish muhandisligi sifati nazorati ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Loyiha asosida 1 million dollarlik zamonaviy laboratoriya jihozlari olib kelindi. Kelgusida ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini yanada oshirish,



kasb etishini ta'kidledi. Dual ta'limni joriy etish, qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan aniq vazifalar belgilandi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

### Viloyat hayoti

xalqaro hamkorlikni kengaytirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda bitiruvchilarning raqobatbardoshligini kuchaytirish universitet oldida turgan ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan.

Yig'ilishda talabalarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda ilmiy tadqiqotlarni real sektor ehtiyoji bilan uyg'unlashtirish yuzasidan fikr almashildi.

Viloyat hokimi Adiz Boboyev ta'lim muassasalari va biznes vakillari o'rtasidagi yaqin hamkorlik hudud iqtisodiyotini rivojlantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat

### "O'zbekiston – 2030"

## MILLIY TARAQQIYOT

strategiyasini yangilash zarurati

2019-yildan buyon "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tomonidan qonunchilikka doir hujjatlar, jumladan, davlat dasturlari, Prezidentning farmon va qarorlari loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga havola etib kelinmoqda.

2019- hamda 2021-yillarda muhokamaga qo'yilgan Davlat dasturida yo'nalishli taksilar faoliyatini raqamlashtirish, mahalla instituti faoliyatini takomillashtirishda Davlat xizmatlari agentligidagi tekin va pulli xizmatlarning aynan mahallada yo'lga qo'yilishi haqidagi takliflarim inobatga olindi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi muhokamasiga ham 40 dan ortiq taklif bildirdim. Ular-dan mahalla instituti faoliyati samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirishga oid takliflarim qabul qilindi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



Joriy yilda viloyatning turizm salohiyatini, jumladan, ziyorat turizmini rivojlantirishga bag'ishlangan taqdimotda bu fikr alohida qayd etildi.

Viloyat hokimi A.Boboyev turizm boshqarmasi mas'ullarining bu haqdagi taqdimoti bilan tanishar ekan Samarqandda turizm mavsumiy emas, doimiy faoliyat bo'lishi, yil davomida mahalliy va xorijlik sayyohlar kelishi uchun alohida turizm yo'nalishlari va dasturlari tayyorlash zarurligini ta'kidledi.

— Samarqand deyilganda har qanday sayyoh ko'z oldiga avvalo, qadimiy yodgorliklar va tarixiy obidalar, muqaddas qadamlar keladi, — dedi A.Boboyev. — Bundan g'ururlanamiz, albatta. Lekin turistlar faqat shu tarixiy obidalarni ko'rish uchun keladigan bo'lsa, bunga ularning ko'p vaqti ketmaydi, ya'ni Samarqandda uzoq vaqt qolmaydi. Biz esa iqtisodiyotda turizm sohasining ulushini oshirmoqchi, yangi ish o'rinlari va xalqimiz uchun doimiy daromad manbai yaratmoqchi bo'lsak, viloyatimizning mavjud turistik imkoniyatlaridan unumli foydalanishimiz lozim. Axir sayyohlarni viloyatimizning istalgan hududiga olib borib, hech bo'lmaganda, go'zal tabiat manzaralari, tog'lar, qir-adirlarni, xalqimizning o'ziga xos

## 2026-yil Samarqand turizmi uchun yangi davr bo'ladi



turmush tarzini, an'ana va qadriyatlarimizni ko'rsatish mumkin. Buning uchun faqat to-

za-ozoda, sifatli turizm xizmatlari ko'rsatish kifoya. Infratuzilma yaratib berishni biz o'z

zimmamizga olamiz.

Ana shunday e'tibor va imkoniyatlar tufayli o'tgan yil viloyatda 20 dan ortiq yangi turizm yo'nalishlari tashkil etildi. Ziyorat turizmi obyektlari soni oshdi. Shuningdek, 50 dan ortiq gastronomik turizm nuqtalari, 30 ga yaqin ekoturizm maskanlari, 20 dan ko'proq tibbiy turizm muassasalari, qolaversa, etnoturizm, agroturizm obyektlari tashkil etildi.

Taqdimotda 2026-yilda viloyatda 20 ta yangi mehmonxona, 96 ta mehmon uyi, 38 ta xostel tashkil etilishi rejalashtirilganligi aytiladi. Bunda xorijlik sayyohlarni 5 million nafarga, mahalliy sayyohlarni esa 6 million nafarga yetkazish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 27-dekabrda "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qarorida ham viloyat tuman va shaharlarida turizmini rivojlantirish, buning uchun qulay muhit va infratuzilma yaratish belgilangan. Ana shu vazifalar

asosida yil davomida viloyatda 60 ta yangi investitsion loyiha amalga oshiriladi. 8 ta ko'chani 24/7 tizimida ishlovchi turizm ko'chasi sifatida tashkil etish rejalashtirilmoqda. 70 dan ortiq mamlakatning nufuzli ommaviy axborot vositalari va turizm agentliklari vakillari uchun info-turlar tashkil etish orqali Samarqandning turizm imkoniyatlari targ'ib qilinadi.

Viloyat hokimining o'rinbosari R.Qobilovning qayd etishicha, bu yil viloyatda "Sharq taomlari" xalqaro gastronomik festivali, xalqaro havo shari, paraplan, san'at, etno o'yinlar ko'rgazmalari va madaniy dasturlar keng ko'lamda tashkil etiladi. Shahar va tumanlar imkoniyatlaridan kelib chiqib, har bir hududda o'ziga xos sayyohlik festivallari o'tkaziladi.

Taqdimotda Samarqand shahrida tashkil etilayotgan tunu kun faoliyat ko'rsatuvchi turizm ko'chalari haqida ma'lumot berildi. Viloyat hokimi bu kabi ko'chalarda foto va selfi zonalar tashkil etish, odamlarning emin-erkin harakatlanishi uchun qulaylik va xavfsizlikni ta'minlash, ko'chalar atrofida bog' va yashil hududlar hamda avtoturar-gohlar yaratish bo'yicha mas'ullarga top-shiriqlar berdi. Har bir loyihada avvalo, mahalliy aholi va sayyohlarga qulaylik yaratish asosiy mezon bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.



Toyloqdagi ko'p qavatli uylar 8 ballik zilzilaga dosh beradimi?



Behbudiy – millatning buyuk ma'rifatparvari



"Dinamo" safiga urug'vaylik Mauro Brazil hamda sloveniyalik Til Mavretich kelib qo'shildi





# Tungi chiroqlar

## ko'chalarimizni yorug' va xavfsiz qilmoqda

Bir necha yillar ilgari Samarqand shahriga tungi chiroqlar o'rnatish "Samarqand nur" MChJ xodimlari tomonidan amalga oshirilar edi. Mazkur korxona Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi tarkibiga o'tgach, bu yumush bilan loyihalar tenderida g'olib bo'lgan qurilish korxonalari shug'ullanmoqda.

Past Darg'om, Oqdaryo, Paxtachi, Jomboy, Toyloq tumanlariga kirish yo'llariga o'rnatilgan zanglamaydigan metaldan tayyorlangan tungi yoritish chiroq ustunlari Toshkent shahridagi «Metal Profil» MChJga qarashli korxonalardan keltirilmoqda. Asosan yoritish ustunlari, yo'lni ajratib turuvchi to'siqlar, parklar va xiyobonlarga o'rnatiladigan "xay tek" dekorativ chiroqlari ishlab chiqaruvchi mazkur korxona o'z mahsulotlarini mamlakatimiz bo'ylab yetkazib bermoqda. Shuningdek, viloyatimizning barcha tumanlarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar ham arzon va qulay metaldan turli o'rindiqlar, to'siqlar va chiroqlar uchun ustunlar tayyorlab mahalla va qishloqlarning obodligi uchun hissa qo'shib kelmoqda.

Shaharning qadimiy osori-atiqalari, jumladan, Registon maydoni, "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazi, Universitet xiyoboni kabi aholi gavjum maskanlarning tunda ham jozibador ko'rinishi uchun tungi chiroqlarning katta ahamiyati bor.

- Bir vaqtlar shaharning markaziy ko'chalaridagina tungi chiroqlar o'rnatilgan bo'lsa, bugunga kelib barcha katta-kichik ko'chalarga, aholi gavjum bo'ladigan maydonlarga "Xavfsiz shahar" loyihasi asosida elektr tejammor chiroqlar va projektorlar o'rnatildi, - deydi Samarqand shahar hokimi o'rinbosari Yunus Bobonazarov. - Amalga oshirilgan loyiha doirasida 100 mingdan ortiq aholining tungi paytda ko'chada bemalol harakatlanishi uchun yorug', xavfsiz makon yaratildi. Shuningdek, ayrim hududlarda o'rnatilgan quyosh panelli ko'cha chiroqlari orqali elektr sarfi tejali, iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda.

Viloyatimizda 10 ga yaqin kichik korxona tomonidan chi-

roqlar uchun zamonaviy ustun va panjaralar tayyorlanmoqda. Jumladan, "Me'mor Alisher Kumushkent" MChJ korxonasida ham xuddi shunday mahsulotlar tayyorlanadi.

- Ilgari oddiygina o'rindiqlar yoki to'siqlarni tayyorlovchi korxona bo'lmaganligi uchun ularni Samarqand yoki Toshkent shahridan olib kelishga majbur bo'lardek, - deydi korxona bosh muhandisi Akmal Xo'jamqulov. - Endilikda korxonamiz qoshida sex tashkil etib, barcha shakllardagi chiroq ustunlari, panjara va to'siqlarni tayyorlayapmiz. Ayni vaqtda Bulung'ur tumanini kesib o'tgan Bulung'ur kanali yoqasida 3,5 kilometr velo va piyoda yo'laklari quryapmiz. Hozirgacha ishchilarimiz tomonidan 2 kilometr masofa betonlashtirildi. Seximizda 35 ta zamonaviy o'rindiqlar, 50 ta 3 metrlik chiroq ustunlari va panjaralarni tayyorlab qo'ydik.

Elektr energiyani tejash maqsadida joylarda quyosh panelli ko'cha yoritish chiroqlari o'rnatish ham yo'lga qo'yilmoqda. Ularni ayniqsa, Samarqand shahri ko'chalarida, tarmoqlar torish murakkab bo'lgan hududlarda va M-39 avtomagistral yo'llarida ham ko'plab uchratish mumkin. Ayrim mahalla va qishloqlarda qurilgan piyodalar yo'laklariga o'rnatilayotgan tungi yoritish chiroqlari uchun elektr energiyasi sarflanmaydi. Ya'ni, yoritish chiroqlari quyoshdan quvvat oladi. Bu uskunaning kunduzi fotovoltaiq panellari yorug'lik energiyasini oladi va qayta quvvatlanadigan batareyani zaryad qilish uchun elektr energiyasini uzatadi. Kechasi akkumulyator batareyasi quyosh nurlari zaryad boshqaruvchisi nazorati ostida LED yoritkichiga elektr energiyasini yetkazib beradi. Natijada elektr energiyani tejashga erishiladi.

Dilmurod TO'XTAYEV,  
"Zarafshon" muxbiri.



(Davomi.  
Boshlanishi 1-sahifada).

Zero, har bir mahallada sotsiologik va analitik tahlillar o'tkazilishi miqdor va sifat ko'rsatkichlari shaf-fof bo'lishi, axborot almashinuvida ochiq va oshkorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtiroki qisqartirilayotgani, bozor mexanizmlarini kuchaytirish, raqobat, samaradorlik va investitsiya jozibadorligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va tibbiyot sifatini oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishning mustahkam asosini yaratish kabi muhim demokratik rivojlanish yo'llari e'tirof etildi. Bu joriy yil uchun vazifalar majmuasi emas, balki O'zbekistonning o'rta va uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasidir.

Bugungi kunda jahonda geosiyosiy qarama-qarshiliklar, iqtisodiy beqarorlik, mintaqaviy mojarolar va global bozorlardagi tebranishlar davlatlar oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda har bir mamlakat o'z milliy manfaatlarini himoya qilgan holda, tashqi siyosatda ehtiyotkorlik, muvozanat va pragmatizmni ta'minlashi hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu esa davlatimiz rahbari aytganidek, erishilgan ulkan natijalar, yangi ustuvor vazifalar "O'zbekiston - 2030" strategiyasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor bo'lgan ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilib, aholining fikr-mulohazalari asosida takomillashtiriladi.

Shu yurtga daxldor fuqaro sifatida yangilanayotgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi loyihasiga bir qator takliflarni taqdim etdim.

Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash uchun Ijtimoiy himoya agentligi bilan hamkorlikda "Davlat moliyaviy kafolati + muassasa tanlash erkinligi" tamoyillari asosida "Davlat bola uchun moliyalashtirish (voucher model)" tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Qolaversa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maktab tizimiga integratsiya qilish Ijtimoiy himoya agentligi yordamida "Huquqiy majburiyat + hududiy tenglik siyosati" tizimi orqali qamrovni to'liq ta'minlash imkonini beradi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv muhitining xavfsizligi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari inklyuzivlik va farovonlik omillariga bog'liq. Shu nuqta nazardan "Maktab-jamoaaviy ta'lim muhiti", "Ijtimoiy muhit ta'lim

# MILLIY TARAQQIYOT

strategiyasini yangilash zarurati

madaniyati", "O'quvchi farovonligi monitoringi", "Ota-ona-maktab-mahalla" hamkorlik modeli tizimlari joriy etilishi lozim.

Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun "O'qituvchi - yetakchi o'qituvchi - metodist - trener" tamoyili asosida mehnatga haq to'lashni kasbiy o'sish bilan bog'lash tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchilarning, metodist va trenerning vazifalari orqali sifat va samaradorlikni oshirish asosiy omil bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda industrial professor institutini yo'lga qo'yish lozim. Bunda ilmiy ishlanmalarning amaliy qiymati, tadqiqot natijalarining xalqaro bozorga chiqishi, iqtisodiy samarasini va kadrlar salohiyatining oshishi ko'rsatkichlari shakllanadi.

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish milliy elektron tibbiyot platformasini bosqichma-bosqich joriy qilishda qo'l keladi. Sog'liqni saqlash muassasalarida yagona standartlarga o'tish, bunda bemorlarning elektron kartotekalari integratsiyalash orqali ma'lumotlar tez va xavfsiz almashiniladi, diagnostika va davolash samaradorligi oshadi.

Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish infratuzilma rivoji, inson kapitali sifatining oshishi va innovatsion faollik bilan bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, daromadi o'rta haddan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish uchun faqat iqtisodiy o'sish emas, balki barqaror ijtimoiy va institutsional tizimlarning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqta nazardan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi samarali makroiqtisodiy va institutsional siyosatni shakllantirish, sanoat va xizmatlar sohalarini yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlar asosida



modernizatsiya qilish, milliy brendlarni rivojlantirish, eksport salohiyatini diversifikatsiya qilish, transport, energetika va logistika infratuzilmasini taraqqiy ettirish, raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish lozim.

Mamlakatimizning global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish maqsadida O'zbekiston - Markaziy Osiyo logistika markazini tashkil etish, global qiymat zanjirlariga chuqur integratsiya qilish foydadan xoli bo'lmaydi.

Irrigatsiya tizimi va suv tejavchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, "Irrigatsiya va suv samaradorligi" strategiyasini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish kerak.

"Yashil energiya" texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish asosida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish, barqaror energiya manbalari (quyosh panellari, shamol turbinolari yoki kichik gidrostantsiyalar kabi tabiiy manbalardan energiya ishlab chiqarish) tizimlarini joriy etish talab etiladi.

Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammo-

larini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida hududlarda aholini qiynayotgan muammolarni yechish mexanizmlarini o'rganish, o'rgatish va uni ommalashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur.

Muxtasar aytganda, "O'zbekiston - 2030" strategiyasini yangilashda nafaqat mamlakat iqtisodiyotining yalpi o'sishi ko'rsatkichlari, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun foyda keltiradigan, global tendensiyalarga moslashuvchan, "Maqsad - harakat - natija" janriga asoslangan yangi rejalar tuzish, barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan institutsional ezgu maqsadlar nazarda tutilmoqda.

Shahriyor XOLBOYEV,  
Prezident huzuridagi  
davlat siyosati va boshqaruvi  
akademiyasi Samarqand  
hududiy filiali direktori vazifasini  
bajaruvchi.

## DAVLATNING HARAKAT YO'NALISHINI BELGILOVCHI

# TADBIR

2026-yil 15-yanvardan respublikamizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish boshlandi va bu jarayon ikki bosqichda 28-fevralga qadar davom etadi. Bunda dastlabki 17 kun internet orqali va keyingi bir oyda esa "mahalla yettilligi" ishtirokida uy-uy yurib ro'yxatga olish ishlari olib boriladi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishda Yevropa statistiklar konferensiyasining 2020-yildagi tavsiyalari asosida aholining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati, faoliyat turi, daromad manbalari to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirishdek muhim vazifalar belgilanadi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun "mahalla yettilligi" hamda korxona-tashkilot xodimlarining maxsus o'quv dasturi asosida tayyorlanishi ko'zda tutilmoqda, ya'ni bu boradagi ishlarining rag'batlantirib borilishi amalga oshiriladi. Shuningdek, mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holati, chorva mollari va parrandalar soni aniqlanadi.

Respublikamizda bu kabi umummilliy ro'yxatga olish tadbiri oxirgi marta 1989-yilda o'tkazilgan. Keyingi 36 yilda bu yo'nalishda qator ishlar amalga oshirildi, biroq to'laqonli ro'yxatga olishni o'tkazish uchun zarur omillar va xalqaro tajribalarni o'rganish hamda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish ma'lum vaqtgacha keyinga qoldirilgan edi. Bunga birinchi sabab - aholini ro'yxatga olish ba'zilar o'ylaganidek, aholi sonini aniqlashdangina iborat emas. Bu jarayonni amalga oshirishda, mamlakat iqtisodiy tuzilmasining barcha jihatlarini, ijtimoiy sohadagi muammolar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash ko'zda tutilgan.

Ikkinchidan, shaxslarning iqtisodiy xususiyatlariga doir ma'lumotlarni to'plash bu boradagi asosiy zarurat ekanligini e'tiborga olishimiz zarur. Ochiqchasiga aytganda, aholi va qishloq

xo'jaligini ro'yxatga olishda ish rejimini tuzish, mamlakat mehnat bozorida aholining keng ishtirok etishi, buning uchun jamiyatda samarali mehnat tizimini yaratish, barcha shaxslar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va ilmiy uslubni qo'llagan holda topish juda muhim rol o'ynadi. Shu bois ro'yxatga olish jarayonida to'plangan har bir ma'lumot aholining iqtisodiy ahvolini o'rganish, baholashga imkon yaratadi.

Ushbu tadbir o'tkazilgandan keyin bir qancha yo'nalishlarda natijadorlikka erishiladi. Jumladan, aholining real joylashuvidan kelib chiqib, davlat dasturlari rejalashtiriladi. Ijtimoiy soha obyektlari, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, tibbiyot muassasalari hamda oliy ta'lim muassasalarini qurish samarali tashkil etiladi.

Shuningdek, uy-joy, yo'l, suv, kanalizatsiya, gaz va elektr tizimini qurish va kengaytirish loyihalarini manzilli amalga oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi yerlarini samarali rejalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishda fuqarolar tomonidan berilgan barcha ma'lumotlar qonun asosida maxfiy saqlanadi.



Yer maydoni, chorva soni yoki boshqa ma'lumotlar soliqqa tortish yoki tekshirish uchun asos bo'lmaydi. Bu ma'lumotlar faqat umumiy statistika maqsadida qo'llaniladi.

Shuning uchun savolnomani xavotirsiz va to'liq to'ldirish lozim. Shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi qonun bilan kafollanadi va boshqa idoralarga taqdim etilmaydi.

Rahimjon YUSUPOV,  
Samarqand davlat universiteti dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 6-ustuvor yo'nalish sifatida zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarni davom ettirish nazarda tutilgan. Jumladan, har qanday davlatni ich-ichidan yemiradigan illat – korrupsiyaning “davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid” ekanini alohida ta'kidlab, 2026-yilda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha “favqulodda holat” e'lon qilinishi qayd etilgan.

Murojaatnomada belgilangan ustuvor vazifalarning izchil davomi sifatida 2025-yil 30-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan uzviy hamkorlikda tashkil etiladi. 2026-yil 1-iyuldan davlat organlari va tashkilotlarida 2030-yilgacha bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimi joriy etiladi. Ushbu tizim birinchi navbatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi natijalariga ko'ra “qoniqarsiz” deb baholangan davlat organlari va tashkilotlarida joriy etiladi. Davlat organlari va tashkilotlarida Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etish agentlik tomonidan tasdiqlanadigan reja-grafikka muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimining belgilangan muddatlarda joriy etilmaganligi davlat organi yoki tashkilot rahbari va o'rinbosarlariga tizim joriy etilgunga qadar bo'lgan muddatda barcha rag'bat-

## Korrupsiyaga qarshi kurash –

ochiq, adolatli va raqamli davlat qurish yo'lidagi strategik ustuvor vazifa

lantirish to'lovlari to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Agentlik, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, ilmiy muassasalar, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining doimiy hamkorligiga asoslangan Korrupsiyaning oldini olishning yaxlit tizimi-Korrupsiyaning oldini olish klasteri joriy etiladi.

Farmonga ko'ra, “Raqamli komplaens” axborot dasturiy kompleksi 2026-yil 1-iyuldan sinov rejimida ishga tushiriladi. Bunda korrupsiyaning oldini olish klasteri ishtirokchilari o'rtasida tezkor ma'lumot almashish, dasturiy kompleksning “E-Komplaens” modulini ishga tushirish orqali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini to'liq raqamlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Agentlikka davlat organlari va tashkilotlari markaziy apparatining

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalariga tizim tashkilotlariga qonunbuzilish holatlarining oldini olish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma va ularni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritish huquqi beriladi.

Shuningdek, farmonga muvofiq, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni mehnat faoliyatida ta'qib, tazyiq holatlaridan himoya qilish maqsadida agentlik tomonidan himoya orderini taqdim etish amaliyoti joriy qilinadi. O'z navbatida, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shgan shaxslarni rag'batlantirish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashishga qo'shgan hisssasi uchun” ko'krak nishoni ta'sis etiladi.

**Musavvara IBRAGIMOVA,**  
“Adolat” sotsial-demokratik  
partiyasi viloyat kengashi raisi  
o'rinbosari.

## Internetga qaramlik – koni zarar

Avtobekatlardan birida yonimda o'tirgan ikki ayolning suhbatini eshitishga to'g'ri keldi.  
- Uchinchi sinfda o'qiydigan o'g'limning matematika kitobidagi masalalar shunchalar qiyinki, uyga vazifasini bajarishda mendan yordam so'raganda ularni yechishga qiynalaman.

- Ha, nimasini aytasiz, o'quvchilik davrimda maktabda matematikadan yaxshi o'qigan bo'lsam ham, hozirgi masalalarni yechishga aqlim yetmaydi.

- Dugonajon, yaxshiyam internet bor. O'g'lim o'sha yordamida masala yechishni o'rganib olgandan beri qulog'im tinchidi.

Ayolning gaplari ensamini qotirdi. Endigina suhbatiga qo'shilmoqchi edim, ular kutgan avtobus kelib qolgani uchun o'rnidan turishdi.

To'g'ri, boshlang'ich sinfda o'qiydigan bolalar uchun chop etilgan kitoblardagi masalalar, ayrim yuqori sinf o'quvchilariniki bilan qiyoslaganda ancha murakkab. Ammo bolalarning sun'iy intellektdan foydalanishi...

Yaxshiyam olis qishloqda yashaymiz. Boshlang'ich sinfda o'qiydigan bolalarimiz sun'iy intellekt nimaligini bilmaydi. Shu xayollar bilan men ham o'zim kutgan avtobusga chiqdim.

Bu voqea bundan ikki yil avval, talabalik davrimda sodir bo'lgandi.

\*\*\*

Hozirgi kunda ta'lim tizimidagi murakkabliklar va texnologiyalarning jadal rivojlanishi yosh avlodni tarbiyalashda yangi uslub va yondashuvlarni talab qilmoqda. Men boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lish orzusida oliy o'quv yurtida tahsil oldim. O'zim tanlagan kasb mas'uliyatini his qilgan holda ularning kelajagi haqida chuqur o'ylashga majburman.

Hozirda oilaviy sharoit, yosh bolalarim borligi sabab maktabda ishlamayapman. Olgan bilimlarim esimdan chiqmasligi, tajriba o'tirtirish, yangi darsliklardan, yangiliklardan xabardor bo'lib turish

maqsadida o'zim yashaydigan tog'lar orasidagi qishloqda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan qo'shimcha to'g'arak tashkil qilgansang, jangda oson bo'ladi», degan gap bor.

Bir kuni o'quvchilarimga uyga beriladigan vazifalarni, masalalar yechish usullarini bir necha marta tushuntirdim. Dars yakunlangach, “tushunarlimi”, deb so'radim, ular “ha” dedi va uylariga kuzatdim.

Ammo kelasi darsda ko'rdimki, ularning barchasi topshiriqni bir xil qilib “ko'chirib” kelishgan. Masalaning yechimi men o'rgatgan uslubdan mutlaqo farq qilardi. Bu esa ularning sun'iy intellekt yordamida topshiriqni bajarganligini yaqqol ko'rsatib turardi.

Shu payt shahardagi voqea yodimga tushib, ikki hissa asabiylashdim. O'quvchilarimga yuzlanib, sun'iy intellektdan foydalaniganligini bilib turganimni, agar kim tan olmasa, “2” baho qo'yib, ota-onasini chaqirtirishimni aytdim. Bolalar birin-ketin o'z xatolarini tan olishga majbur bo'lishdi.

Achinarlisi, ota-onalarning qiynalib, peshona teri bilan topgan pullari farzandlar ta'limiga sarflanmayapti.

Dunyoda haydovchisiz mashinalar ishlab chiqilayotgan, axborot texnologiyalari taraqqiy etgan bir davrda bolalarimizni mustaqil ravishda o'rganishga tayyorlashimiz juda muhim. Har bir ota-ona farzandining qanday ta'lim olayotganini, nimalar bilan shug'ullanayotganini uyda nazorat qilishi, o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashi kerak. Ularni o'z qo'limiz bilan yot g'oyalarga, internet tarmoqlariga topshirib qo'yamiz!

**Zahro IBRAGIMOVA,**  
Navoiy viloyati Nurota tumani.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56



### Samarqand davlat chet tillar instituti quyidagi lavozimlarga shartnoma asosida

## TANLOV E'LON QILADI

1. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasini professori - 1 nafar. *Fan doktori, DSc, professor;*

2. Nemis filologiyasi kafedrasini mudiri - 1 nafar. *Fan doktori, DSc, dotsent;*

3. Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini professori - 1 nafar. *Fan nomzodi, professor;*

4. Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

5. Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

6. Ingliz tili nazariyasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

7. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

8. Ikkinchi chet tillar kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

9. O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

10. Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

11. Ingliz filologiyasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

12. Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

13. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

14. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent;*

15. Payariq umumiy fanlar kafedrasini dotsenti - 1 nafar. *Fan nomzodi, PhD, dotsent.*

**Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:**

1. Rektor nomiga ariza;

2. Ma'lumoti to'g'risidagi diplomlaridan nusxa;

3. Ilmiy ishlar ro'yxati (3.4 shakl, tasdiqlangan holda);

4. Pasport nusxasi;

5. Ma'lumotnoma (obyektivka).

**Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.**

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 43-uy, xodimlar bo'limi.**

**Murojaat uchun telefon: +99891-520-87-45.**

rilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99897-921-01-11.**

\*\*\*

Samarqand shahridagi “NURLI KELAJAK ISHONCH SERVIS” MCHJga qarashli davlat raqam belgisi 01 LA 240 bo'lgan “DX300LCA” rususli transport vositasining davlat raqami belgisi va texnik pasporti Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99897-612-97-74.**

#### DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Amirov Temirga (2025-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.**

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Eshmirzayev Mamanazar Abdalimovichga (2023-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Ruzimurov Shamsidin Mixilboyevichga (2024-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Norimov Himmatillo Mamatovichga (2025-yil 31-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.**

\*\*\*

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Jabbarov Qodirga (2019-yil 28-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Mamedova Moyira Alicjanovna (2022-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri No-dirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Maxmudova Zamira Sattorovna (2024-yil 30-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Abdusamatov Marat Azimovichga (2020-yil 25-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.**

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Avliyakulov Narzilla Xudoyberdiyevichga (2024-yil 15-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*\*\*

Paxtachi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'janova Dilobar Mahmudovna notarial idorasida marhum Boymuradov Ismoil Eshnazarovichga (2025-yil 3-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'janova Dilobar Mahmudovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Paxtachi tumani Chashma mahallasi.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Yo'lyaxshiyev Raxmankulga (2016-yil 23-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.**

\*\*\*

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Burxonov Aslidinga (2025-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.**

\*\*\*

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Soliyev Xamroqulga (2024-yil 30-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri No-dirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Baltabayeva Marxabo Baxriyevna (2025-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

\*\*\*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Xaqullov Mansur Zokirovichga (2022-yil 11-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Amriddinov Shahzod Obidovich notarial idorasida marhum Muxammadiyeva Fuzallaga (2017-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Amriddinov Shahzod Obidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Karimov Fatto Sharifovichga (2025-yil 23-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Soliyev Xamroqulga (2024-yil 30-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Soliyev Xamroqulga (2024-yil 30-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri No-dirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**



# ХАЛҚ ХИЗМАТИДАГИ БИР АСРЛИК УМР

Юз ёшни қаршилаётган профессор Баҳрон Вафоқулов сийратига чизгилар

Иккинчи Жаҳон уруши тугаши арафасида Самарқанд тумани Туркман қишлоқдаги мактабга ҳарбий комиссарлик вакиллари келишди. 9-синф ўқувчиларидан бўй-басти баландроқ бўлган уч-тўрт нафар ўғил болани ажратиб, вужудга келган муҳитда давлатимизга яхши шифокорлар кераклигини айтишди. Самарқанд медицина институти сизларни тайёрлов бўлимига қабул қилишга тайёр. Табиийки, шижоати кўзларидан билиниб турган Баҳрон бу таклифни жон деб қабул қилди. Тўғри, меҳмонларнинг яхши ўқисангиз ҳарбий дўхтир бўлишингиз мумкин, деган гапи ҳам унга маъқул тушди. У ана шу тариқа тиббиётга кириб келди. Яхши ўқиди, зўр ўқиди. Барибир тақдирига битилгани бўлди. Б.Вафоқулов кўпчилик ҳамкасбларига ўхшаб бир жойда ишлаш олмади, ватангашталиқ пешонасида битилган экан. Фақат фронтга эмас, балки ҳукумат юборган кўплаш минтақаларда хизмат қилишига тўғри келди. «Четда шунчалик кўп ишлабманки, қишлоғимни, қишлоғим одамларини унутиб қўйя дебман», деб ҳазиллашарди домла.

Илк иш фаолиятини 1949-йилда Қўшработ туманида бошлаган ёш дўхтир кўп ўтмай, Чархин туман соғлиқни сақлаш бўлимига раҳбар этиб тайинланди. Илгга иштиёқи туфайли илмий ва амалий фаолиятини канда қилмади. Кейинчалик Паст Дарғом, Пайарик ва Самарқанд туманлари тиббиёт бирлашмаларига раҳбарлик қилганида ҳам илмий тадқиқотларини давом эттирди. Самарқанд туманида ишлаган жараёнида Баҳрон ака шахар атрофидаги чекка қишлоқларда тиббий хизматни кўтариш ҳаракатида бўлди. Айниқса, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш масалаларини туман раҳбари олдиға кўндаланг қўйди. Дарвоқе, Тепакул ва Сазоғон адирларига Оҳалиқдан сув олиб келиш ғоясини амалға оширгани ҳақида маҳаллий аҳоли ҳали ҳам фахр билан гапирлади.

Вилоятнинг кўп туманларида ишлаб, қишлоқ жойларидаги санитария ахволи ва тарқалаётган эпидемиялардан хабардор бўлган бу мутахассис беш йил давомида Самарқанд вилоят санитария ва эпидемиология марказининг бош шифокори бўлиб ҳам кўп ишларни амалға оширди. Баҳрон аканинг қизғин фаолияти Қашқадарё вилояти соғлиқни сақлаш бoshқармасига бошлиқ этиб тайинланган даврга тўғри келди. Бу ерда тиббиётнинг жуда кўп соҳаларини йўлга қўйишга, кадрлар билан таъминлашга бел боғлади. Вилоятда илк бор болалар шифохонаси очилди. Бир йилнинг ичида мавжуд шифохоналарда лор, ревмокардиология, гематология, эндокринология ва асаб касалликларини даволайдиган бўлимлар ташкил этилди, онкология диспансери ишға туширилди. Раҳбарият ёрдами билан «Қарши қурилиш» бирлашмаси таркибида тиббий санитария қисмига асос солинди. Ўшанда вилоятдаги барча тиббиёт муассасаларида бор-йўғи икки нафар фан номзоди фаолият кўрсатган. Бoshқарма бошлиғининг ташаб-



буси, жонқуярлиги туфайли 1976 йилға келиб, улар сони 22 нафардан ошди. Дарвоқе, ўзи ҳам номзодлик диссертациясини ёқлади. Б.Вафоқулов Самарқанд тиббиёт институти проректори бўлиб ишлаган чоғида (1976-1981) илмий ишлар самарадорлигини ошириш, ўқув жараёнини тўғри ташкил этиш борасида анча-мунча таклифлар билан чиқди ва кўп ишларни амалға оширди. Қолаверса, Москвада докторлик диссертациясини ёқлади. Ана шундай жараёнда 1981 йил август ойида уни Тошкентга, республика биринчи раҳбари Шароф Рашидов ҳузурига қақиршиди. Домлага иттифоқ тасарруфидаги «Вакцина ва зардоб» илмий ишлаб чиқариш институти директорлигини ишонди. Чунки ўша пайтда айнан ана шу соҳа ёрдамға муҳтож эди. Устоз 14 йил давомида шу институти тиббиётнинг чинакам марказига айлантирди ва мустақилликдан кейин институт негизида «Вакцина» илмий ишлаб чиқариш бирлашмасини тузди ва узоқ йиллар шу идорани бoshқарди. Тиббий марказ Самарқандға кўчиб келгач, унинг таркибида «Шарқ табobati» илмий тадқиқот институти очилди ва «Ўсимликлар, мавжудотлар ва минерал маҳсулотлардан тиббиёт учун олинадиган доривор воситалар» мавзусида республика илмий-амалий конференцияси ўтказилди. Бир сўз билан айтганда, домла бу

соҳада ҳам ўзига хос из қолдирди. Баҳрон ака болалигидан тўғри гапиршиға, сохталикка нафрат билан қарашға, ўз касбини қадрлашға ўрганган. Шу сабабли бу хислатлари кимгадир ёқиши ва кимгадир ёқмаслиғидан қатъий назар ҳамиша соҳанинг ривожига, обрўсининг ошишиға хизмат қилди. Дунё кезгани учун тиббиётдаги янгиликларни Ватаниға олиб келишға уринди. Бу фаолиятнинг замирида домланинг ўз касбига садоқати, одоби, одамларға бўлган меҳр-муҳаббатни ётади. Зеро, камина устозни яхши билганим учун у кишининг айрим фазилатларини ҳурматли муштарий билан баҳам кўргим келди.

Б.Вафоқулов ҳаёт лаззатини меҳнатдан қидиради, дангасаларни ёмон кўради. Ўзи ғайратли бўлганлиги боис ишбилармон ва тадбиркорларни яхши кўради. Ўзига ҳам, атрофидагиларға ҳам ўта талабчан. Билмаганларини сўраб ўрганишдан ор қилмайди, суҳбатдошнинг диққат билан эшитида. Танқид қилиш баробарида ҳодимларининг ютуқларини ҳам рағбатлантира олади, етти ўлчаб, бир кесади. Кўп жойларда ишлагани учун одамларни ҳурмат қилишни билади. Ёнида лаъқатсиз одамларнинг юришини истамайди.

Албатта, Баҳрон акани таниганлар бу фикримға қўшилиди. Эҳтимол, ана шундай фазилатлари, бағрикенглиги учун ҳам у киши бугун 100 ёшини нишонлапти.

Баҳрон ака ибратли ота. Холида ая билан биргаликда саккиз нафар фарзандни воға етказди. Ҳаммаси олий маълумотли – фармацевт, педагог, юрист ва шифокор бўлиб етишди. Икки қизи тиббиёт фанлари номзоди.

Барчамизға домланинг ёшиға кириш, у кишидек фароғатға эришиш насиб этсин.

**Беход ТўРАҚУЛОВ,**  
**Самарқанд давлат университети доценти.**  
**Холиқ ҲАКИМОВ,**  
**журналист.**

## Tarixiy shaxslar siymosi e'tiborsiz qolmasligi kerak

- Bobomning bobolari usta kulol bo'lgan. Shuning uchun bu kasb menga bobolarimdan o'tgan, - deydi Umrzoq Sharipov.

Bugun yetmish yoshni qarshilagan haykaltarosh umrining besamar o'tmagani bilan faxrlanadi. U yasagan haykallar respublikamizning deyarli barcha hududlarida qad rostlab turibdi. Masalan, Samarqandga kiraverishda Cho'ponota tepaligida o'rnatilgan tuyalar karvoni majmuasi Umrzoq akaning ijod namunasi. Narpay tumani xotira maydoniga o'rnatilgan Motamsaro ona haykali, Oqtosh shahridagi Alisher Navoiy byusti, Abdulla Oripovning Qashqadaryodagi uy-muzeyidagi haykali, Surxondaryoning Termiz shahridagi viloyat onkologiya dispenseridagi Ibn Sino haykali, yurtimizda kamol topgan zabardast baxshilarimizning portreti, Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 100-ixtisoslashtirilgan maktab internatidagi Islom Karimovning byusti Umrzoq Sharipovning mehnatlari mevasi. Ularining aksariyati sovg'a tariqasida tortiq etilgan.

- Inson bamisoli mevali daraxt, - deydi haykaltarosh. - Bugun oltmishdan ortiq shogirdlarim bor, ular bilan faxrlanaman. Ayniqsa, ikkinchi o'g'lim Hojiaqbarning haykaltaroshlik kasbini tanlagani menga madad beradi. Behbudiyning byustini yasashda o'g'lim va uning shogirdi Ma'ruf Pardayev katta yordam berdi. Aytmoqchi, nabiram ham haykaltarosh bo'lmoqchi.

Haykaltaroshlik kasbi ortidan ro'zg'or tebratayotgan U.Sharipov pensiya yoshida ham harakatdan to'xtagan y'o'q.

- Qishloqda ustaxona qurganman, - deydi haykaltarosh. - Ijodsiz hayotimni tasavvur qilolmayman. Bitta



haykal yoki byustni yasash mustahkam sabr-toqat talab etadi. Bronza va misdan yasalgan haykallar ta'mir talab etmaydi va uzoq muddat saqlanadi. Faqat kattagina mablag' talab etadi. Behbudi haykalini hozir chiqqan polistol nomli xom ashyodan yasadim. Agar haykal beton yoki gipsdan yasalgan bo'lsa, har olti oyda ta'mirlash kerak.

Darhaqiqat, tarixiy shaxslarning haykal va byustlarini yasash, ularni ma'lum joyga o'rnatish ishlari oson kechmaydi. Kelajak avlodga eslatib turish maqsadida tarixiy shaxslarning haykal va byustlari yasaladi.

Har bir mutafakkir, adib yoki shoirning hayoti va ijodiga bag'ishlangan mushoira kechalari ularning siymosini eslatib turuvchi san'at asarlari oldida o'tkazilsa, bolalar ongida buyuk bobolarimizga nisbatan mehr-muhabbat uyg'onadi. Ishonamizki, toyloqliklar Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan bayram tadbirlarini uning nomidagi bog'da o'tkazadi. O'ylaymizki, shahrimizdagi Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi tarixda o'chmas iz qoldirgan ota-bobolari-mizning haykallari ham e'tibordan chetda qolmaydi.

Agar yoshlarimizni milliy an'analarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalasak, ijtimoiy tarmoqlarda ba'zi o'smirlarning tarixiy shaxslarimizning haykallari oldida behurmatlik qilgani aks etgan videolavhalar tarqalmasdi. Buning uchun bolalarni maktab yoshidan Umrzoq aka Sharipov singari haykaltaroshlarning ustaxonasiga sayohatga olib borish, ularning mashgaqatli mehnati bilan tanishtirish kerak. Shunda yoshlarimiz tariximiz, milliy urf-odat va an'analarimizning qadriga yetardi.

**Xurshida ERNAZAROVA.**

## Saklarning bronza qozoni payariqlik fuqarodan sotib olingan

"Milliy merosga mening hissami!" umumxalq aksiyasi doirasida 2022-yilda "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasiga Payariq tumanidagi Muhammadi qishlog'ida istiqomat qiluvchi fuqaro Anvar Shog'dorov xonadonida sak qabilalariga tegishli bronza qozon saqlanib kelinayotganligi xususida ma'lumotlar kelib tushgach, muzey ilmiy xodimlari ushbu xonadonga ekspeditsiya uyushtirib, bronza qozonni 13 million so'mga sotib oladi. Aslida ushbu noyob ashyo bundan 29 yil oldin topilgan. Faqat uni topib olganlar uning noyobligini bilishmagan va uy-ro'zg'or ishlari foydalanib kelishgan. Qozonning balandligi 37 santimetr, og'iz qismining diametri 52 santimetrni tashkil etadi. Qozon Yettisuv vohasi sak qabilalariga tegishli bo'lib, miloddan avvalgi II-I asrlarga oid. Qozon 1993-yilda fuqaro Anvar Shog'dorov tomonidan Qaroqchi tog'i va Teshiktepa arxeologik yodgorligi oraliqidagi adirdan kanal qazish



vaqtida topib olingan. Bronza qozonlar bugunga qadar Shimoliy Xitoydan Dunay daryosi bo'yigacha bo'lgan hududlarning deyarli barcha yerida topib o'rganilgan bo'lib, qozonlarni saklar, skiflar, sarmat va savromatlar kabi ko'chmanchi qabilalarning degrez ustalari ming yillar davomida quyib kelishgan va qimmatbaho buyum sifatida qadrlashgan.

**To'liqin BO'RIYEV,**  
**"Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi tarix bo'limi boshlig'i.**

### VIJDONNING BUGUNGI SO'ROGI

Farzandining noqobilligidan shikoyat qiladigan ota-onalar, sizning xatoingizni boshqalar qanday tuzatsin?

**Viloyat turizm boshqarmasi Samarqandda havo ekskursiyalarini yo'lga qo'yish bo'yicha "Uzbekistan Helicopters" MChJ bilan kelishuvga erishdi.**

- Muzokaralar davomida havo ekskursiyalarining texnik va tashkiliy jihatlarini, xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etish, parvoz yo'nalishlari va jadvali, shuningdek, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun xizmatlar paketini shakllantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi, - deydi viloyat turizm boshqarmasi bo'lim boshlig'i Suhrob Ergashev. - Loyiha doirasida

## Samarqandda havo ekskursiyalari yo'lga qo'yiladi



viloyatning tarixiy obidalari, tabiiy manzaralari va turistik hududlarini vertolyot orqali tomosha qilish imkonini beruvchi yo'nalishlar taklif etiladi. Tajriba tariqasida Samarqand xalqaro turizm markazi aerodrom sifatida belgilanib, Samarqand shahri, Jomboy, Payariq va Nurobod tumanlari bo'ylab parvozlarni amalga oshiriladi. Keyinchalik, talabdan kelib chiqqan holda, parvoz yo'nalishlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Havo ekskursiyalarini joriy yilning mart oyidan tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur loyiha viloyatda turizm xizmatlari turlarini diversifikatsiya qilish, sayyohlar oqimini oshirish hamda hududning turistik jozibadorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**F.R.O'ZIBOYEV.**

